



UDK:811.512

Iroda ORTIQOVA,
O'zDJTU kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: pirmatova2012@gmail.com

Qarshi davlat texnika universteti dotsenti, PhD X.Nurullayev taqrizi asosida

THE ROLE OF TERMINOLOGY IN LANGUAGE DEVELOPMENT HISTORY: A HISTORICAL-LINGUISTIC APPROACH

Annotation

This article provides an in-depth historical-linguistic and cultural-philosophical analysis of the interaction processes between terminological systems formed during the history of language development. The study examines the decisive factors in the formation and evolution of terminological systems, including scientific knowledge, religious-philosophical thought, artisanal practices, and multilingual contexts. Furthermore, the article explains the mechanisms of interaction between terminological systems based on modern linguistic methods—such as borrowing, calquing, semantic adaptation, neologization, and metaphorization—illustrated with historical examples. The role of terminology within the language system, its communicative and epistemic functions, as well as its significance in the advancement of modern science and society, are also analyzed.

Key words: Terminology, Middle Ages, history of language, language of science, linguistic exchange, calquing, metaphor, determinologisation, epistemic function, cultural context.

РОЛЬ ТЕРМИНОЛОГИИ В ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКА: ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация

В данной статье проводится углубленный историко-лингвистический и культурно-философский анализ процессов взаимодействия терминологических систем, сформировавшихся в ходе исторического развития языка. Рассматриваются ключевые факторы становления и эволюции терминологических систем, включая научное знание, религиозно-философскую мысль, ремесленную практику и многоязычие. Кроме того, на основе современных лингвистических методов в статье объясняются механизмы взаимодействия терминосистем — такие как заимствование, калькирование, семантическая адаптация, неологизация и метафоризация, — с опорой на исторические примеры. Также анализируется место терминологии в языковой системе, её коммуникативные и эпистемические функции, а также её роль в развитии современной науки и общества.

Ключевые слова: Терминология, Средневековье, история языка, язык науки, языковой обмен, чеканка, метафора, детерминологизация, эпистемическая функция, культурный контекст.

TIL RIVOJLANISHI TARIXIDA TERMINOLOGIYANING O'RNI: TARIXIY-LINGVISTIK YONDASHUV

Annotatsiya

Mazkur maqolada til rivojlanishi tarixi davrida shakllangan terminologik tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari tarixiy-lingvistik va madaniy-falsafiy nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilinadi. Til rivojlanishi tarixi ilm-fani, diniy-falsafiy tafakkur, hunarmandchilik amaliyoti va ko'p tillilik holatlari terminologik tizimlarning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, zamonaviy lingvistik metodlar asosida terminologik tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning mexanizmlari — til birliklarini boshqa tildan qabul qilish, kalkalash, semantik adaptatsiya, neologizatsiya va metaforizatsiya kabi jarayonlar tarixiy misollar asosida izohlanadi. Terminologiyaning til tizimidagi o'rni, u orqali amalga oshadigan kommunikativ va epistemik funksiyalar, hamda zamonaviy fan va jamiyat taraqqiyotidagi o'mi ham tahlilda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Terminologiya, o'rta asrlar, til tarixi, fan tili, lingvistik almashinuv, kalkalash, metafora, determinologizatsiya, epistemik funksiya, madaniy kontekst.

Kirish. Til rivojlanishining tarixi insoniyat madaniy taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, u turli bosqichlarda jamiyat ehtiyojlariga moslashgan, o'zgarib borgan va murakkab ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. Dastlab og'zaki shaklda mavjud bo'lgan til asta-sekin yozuvga, undan esa turli ilmiy, diniy va huquqiy matnlarga aylana borgan sari, unda ixtisoslashgan terminlar tizimi paydo bo'la boshlagan. Har bir davr tilining leksik boyligi uning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Vaqt o'tishi bilan insoniyat faoliyatining kengayib borishi bilan birga yangi sohalar, fanlar va texnologiyalar yuzaga kelgan. Bularning har biri o'z terminologik tizimini yaratishga majbur bo'lgan. Shu sababli, terminologiya til

rivojlanishining bir qismi sifatida nafaqat leksik boylikni oshirgan, balki tilning konseptual va tafakkuriy qamrovini kengaytirgan. Tilshunoslikda til tarixini o'rganish orqali biz nafaqat so'zlarning shakli va fonetikasi, balki ularning orqasidagi madaniy va ilmiy tafakkur izlarini ham tahlil qilish imkoniga ega bo'lamiz.

Til rivojlanishi tarixi davri insoniyat tarixida madaniyatlar va ilmiy tafakkur uyg'unlashuvi bilan ajralib turadi. Bu davrda diniy-falsafiy g'oyalar, amaliy bilimlar va fanlar tizimi birgalikda rivojlangan bo'lib, ular asosida shakllangan terminologik tizimlar nafaqat til, balki mintaqaviy madaniyatlararo muloqotda ham muhim rol o'ynagan. Terminologiya bu jarayonda nafaqat ilmiy tushunchalarni nomlash, balki madaniy va konseptual tafakkurni

shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, til rivojlanishi tarixi terminologiyasini o'rganish bugungi zamonaviy fan tili va tilshunoslikning tarixiy ildizlarini anglashga xizmat qiladi.

Juan C. Sager terminologiyani "kommunikatsiya vositasi sifatida ixtisoslashgan til tizimi" deb ataydi [4]. M.-C. L'Homme fikricha, terminlar – bu maxsus bilim doirasida kontseptual tuzilmani leksik jihatdan ifodalovchi birliklar bo'lib, ular madaniy kontekst va ijtimoiy talablar bilan bog'liq holda shakllanadi [3].

Til rivojlanishi tarixi davomida terminologik tizimlarning shakllanishiga bir qancha muhim omillar ta'sir ko'rsatgan. Ularning eng asosiylari — ko'p tillilik, tarjima an'analari, diniy-falsafiy ta'sirlar va amaliy bilimlarning kengayishi bo'lib, ushbu omillar terminlarning madaniyatlararo va fanlararo rivojlanishida bevosita ishtirok etgan.:

Ko'p tillilik va tarjimashunoslik. Til rivojlanishi tarixida tillararo ilmiy almashuv hal qiluvchi rol o'ynagan. Arab, fors, lotin, yunon, turkiy, slavyan tillari o'rtasida yuzaga kelgan ilmiy va madaniy munosabatlar orqali nafaqat leksik birliklar, balki butun ilmiy kontseptlar, nazariy tushunchalar va metodologiyalar tarjima qilingan va moslashtirilgan. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlar tomonidan yunon falsafasi va ilmiy merosi arab tiliga tarjima qilinib, u sharq tafakkuri bilan boyitilgan [1]. Bu tarjimalar esa keyinchalik lotin va boshqa Yevropa tillariga o'tib, fanlararo bilim aylanishiga xizmat qilgan.

Diniy-falsafiy ta'sir. Til rivojlanishi tarixi davomida din va falsafa insoniyat tafakkurining shakllanishida markaziy o'rin tutgan. Ularning til va terminologiyaga ko'rsatgan ta'siri esa ko'p asrlik lingvistik taraqqiyotning ajralmas qismidir. Diniy-falsafiy qarashlar nafaqat insonning dunyoqarashini, balki u orqali shakllangan atamalar tizimini ham belgilab bergan. Ayniqsa, antik davr falsafasi va ilohiyot ilmlari asosida rivojlangan terminlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Teologiya, alkimyo, sufiylik, mantiq va metafizika kabi fanlar o'ziga xos ramziy va kontseptual atamalar bilan boyitilgan. Masalan, "eliksir" atamasi moddaning o'zgartiruvchi quvvatini, "quintessensiya" esa borliqning eng nozik, ilohiy mohiyatini anglatadi, "transmutatsiya" tushunchasi moddaning holat almashinuvi bilan birga, inson ruhining yuksalishini ham ifodalagan [2].

Shuningdek, Qur'oni karim va Injil kabi muqaddas matnlar tarjimasi natijasida shakllangan atamalar (masalan, "vahiy", "najot", "taqdir", "gunoh") ham diniy tafakkurning lingvistik ifodasiga aylangan. Bunday terminlar tilga nafaqat leksik, balki ma'naviy qatlam ham olib kirgan.

Demak, diniy-falsafiy atamalar til rivojlanishining madaniy va semantik asosini boyitgan, kontseptual tarmoqlarning kengayishiga xizmat qilgan hamda terminologiyaning ichki strukturaviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu terminlar diniy va falsafiy g'oyalarni til orqali shakllantirish va yetkazishda muhim vosita bo'lgan.

Til rivojlanishi tarixida amaliy fanlar — tibbiyot, mexanika, qurilish, astronomiya, dori-shunoslik, geodeziya va boshqa kasbiy yo'nalishlar bilan bog'liq terminologiyalar alohida o'rin tutadi. Bu sohalarida yuzaga kelgan terminlar, odatda, kasbiy amaliyot jarayonida shakllanib, dastlab og'zaki nutq orqali qo'llanilgan va keyinchalik yozma manbalarga kirib borgan. Ayniqsa, me'moriy yodgorliklar, tibbiy qo'lyozmalar, yulduzlar xaritalari va dorivor o'simliklarga oid risolalarda bunday atamalarning izlarini uchratish mumkin.

Amaliy bilimlar va kasbiy til. Amaliy sohalar tilining o'ziga xosligi shundaki, u kundalik ehtiyoj va tajriba asosida vujudga kelgan terminlarni asta-sekin ilmiy kontekstga olib kirgan. Natijada bu atamalar tilning kasbiy va ilmiy qatlamini

shakllantirishga xizmat qilgan. Misol uchun, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida qo'llangan ko'plab tibbiy terminlar keyinchalik yevropa tillariga ham o'tgan.

J.C. Sager bu jarayonni "funktional integratsiya" deb ataydi, ya'ni amaliy til birliklarining ilmiy nutqga kirib borishi, u yerda mustahkam o'rin egallashi orqali fan tilining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi [4]. Bu integratsiya, shuningdek, zamonaviy kasbiy terminlarning barqaror rivojlanishida ham davom etmoqda.

Terminlarning shakllanishi — bu til rivojlanishi tarixida yuzaga kelgan murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan lingvistik, ijtimoiy va madaniy jarayondir. Bu jarayon turli tarixiy davrlarda, ayniqsa, ilmiy tafakkur taraqqiyoti kuchaygan bosqichlarda faol kechgan. Har bir tarixiy davrda terminologik birliklar jamiyatning ehtiyojlari, madaniy konteksti, fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda vujudga kelgan. Terminologiyaning shakllanish usullari orqali til nafaqat yangi tushunchalarni ifodalagan, balki mavjud leksik qatlamni ham boyitgan, ijtimoiy ongda yangi bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Quyida til rivojlanishi tarixida terminlar shakllanishining asosiy yo'nalishlari va ularning har biri bilan bog'liq tahliliy izohlar bayon etiladi:

Til birliklarini boshqa tildan qabul qilish.

Terminlar ko'pincha boshqa tillardan o'zlashtirilgan bo'lib, bu jarayon ko'p hollarda madaniy va ilmiy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, arab tilidan: alkogol (al-kuhl), azimut (as-sumut), zenit (samt ar-ra's); yunon tilidan: filofosiya, geometriya, dialektika; lotin tilidan: meditsina, konstitutsiya, laboratorium. Bunday terminlar qabul qiluvchi tilning fonetik va grammatik me'yorlariga moslashtirilgan holda ishlatilgan. Bu usul orqali ilm-fan sohasidagi global bilimlar milliy tillar orqali uzatilgan, bu esa ilmiy tafakkurning universallashtirishga xizmat qilgan.

Kalkalash

Kalkalash — bu chet tilidagi terminlarning so'zma-so'z tarjima qilinib, tilning mavjud morfologik va semantik imkoniyatlari asosida qayta ishlab chiqilishidir. Masalan, lotincha constellatio (lotincha con- "birga" + stella "yulduz") iborasi "yulduz turkumi" tarzida o'zbek tilida shakllangan. Bu usul terminologik milliylikni saqlagan holda, yangi tushunchalarni o'z tilida yaratish imkonini beradi. Shuningdek, kalkalash orqali tilning o'z ichki resurslari kengaytiriladi, ya'ni mavjud til strukturasi yangi ma'noli birliklar vujudga keladi [5].

Semantik adaptatsiya

Semantik adaptatsiya — bu mavjud til birliklariga yangi, ko'proq tor ixtisoslashgan ma'no yuklash orqali termin yaratishdir. Lotincha influenza (quyilish) so'zi o'rta asr astrologiyasida "yulduzlar ta'siri" ma'nosida ishlatila boshlagan. Bu jarayon semantik kengayish va kontekstual ixtisoslashuv orqali amalga oshadi. Ushbu usul terminlar orqali ilmiy tafakkurda yangi tushunchalarni ifodalashni yengillashtiradi.

Ichki lingvistik resurslar

Til o'zining morfologik va semantik imkoniyatlari asosida yangi terminlar yaratishi mumkin. Bunga affiksatsiya (qo'shimchalar qo'shish), kompozitsiya (so'z birikmalari yaratish), semantik kengayish va abreviatsiyalar misol bo'la oladi. Bu yo'l bilan shakllangan terminlar, odatda, milliy tilning o'z holatidan kelib chiqqan holda yaratiladi va normativ terminologiyaga aylanish ehtimoli yuqori bo'ladi. H. Felber bu usulni "terminologik mustaqillik" deb ta'riflaydi, ya'ni til o'z so'z boyligidan foydalanib yangi bilimni nomlay oladi [5].

Metaforizatsiya

Metaforizatsiya — bu murakkab yoki yangi ilmiy tushunchalarni kundalik til birliklari asosida, obrazli shaklda tushuntirishga xizmat qiluvchi jarayon. Masalan, astrofizikadagi "qora tuynuk", yadroviy fizikadagi "yadro", kompyuter sohasidagi "sun'iy intellekt" kabi terminlar real hodisani ma'naviy-psixologik obraz orqali ifodalaydi. Metafora ilmiy sohaning keng jamoatchilik uchun tushunarli bo'lishini ta'minlab, tushunchalarni intuitiv anglashga yordam beradi. Bu jarayon terminlarning semantik kuchini oshiradi va ularni muloqot vositasiga aylantiradi.

Terminologiya — bu til tizimining muhim va alohida qatlamini tashkil etuvchi ixtisoslashgan leksik birliklar tizimidir. U nafaqat ilmiy-texnik sohalarida, balki siyosat, huquq, iqtisod, san'at va boshqa mutaxassislik yo'nalishlarida

Jadval-1

Funksiya	Ta'rif	Ahamiyati	Misol
Nominativ funksiya	Terminologiya yangi tushunchalarni nomlashga xizmat qiladi. Har bir fan sohasidagi ilmiy-texnik yangiliklar nomlanishni talab qiladi.	Yangi kashfiyot va tushunchalarni aniq ifodalash imkonini beradi.	"Blokcheyn", "kvant hisoblash", "nanotexnologiya"
Kommunikativ funksiya	Terminlar mutaxassislar o'rtasida aniq, qisqa va tushunarli muloqotni ta'minlaydi.	Ilmiy munozaralar va professional aloqalarni samarali qiladi.	"Fotosintez", "mitoxondriya", "algoritm"
Epistemik funksiya	Terminologiya bilimlarni tizimlashtirish, tasniflash, saqlash va uzatish vositasi hisoblanadi.	Ilmiy bilimlarning tarkibiy qismlarini mujassam etadi.	"Genom", "ekosistema", "biodiversitet"
Tashkiliy funksiya	Terminlar sohalararo bilimlar tizimini shakllantirishga yordam beradi.	Fanlararo bog'liqlikni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.	"Biokimyo", "astrofizika", "sotsiolingvistika"
Didaktik funksiya	O'quv jarayonida terminlardan foydalanish bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.	Ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.	"Fotosintez", "geometrik shakllar", "kimyoviy reaksiya"
Tashviqot funksiyasi	Terminlar orqali ilmiy g'oyalarni ommaga yetkazish va targ'ib qilish mumkin.	Jamiyatda ilmiy bilimlarni targ'ib etishda muhim ahamiyatga ega.	"Sun'iy intellekt", "qayta ishlanadigan energiya", "iqlim o'zgarishi"

Sh.N. Kuchimov shuni ta'kidlaydiki, terminlar milliy tafakkur va zamonaviy ilmiy tafakkur o'rtasidagi ko'pri bo'lib, ular orqali tilning konseptual va semantik qatlamlari kengayadi [6]. Bu esa o'z navbatida, tilning ilmiy va innovatsion sohalaridagi faoliyatini kengaytiradi hamda milliy tilda ilm-fan rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Til rivojlanishi tarixi davomida shakllangan terminologik tizimlar tildagi konseptual, leksik va madaniy qatlamlarning boyishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Terminlar nafaqat ilmiy tafakkur mahsuli, balki tarixiy, madaniy va diniy jarayonlarning til orqali ifodalanishidir. tahlil natijalariga ko'ra shuni ta'kidlash kerakki, terminlarning shakllanishi — bu tilning ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvi, yangi fan tarmoqlarining paydo bo'lishi va turli tillar o'rtasidagi madaniy almashinuv natijasidir.

Til birliklari boshqa tildan qabul qilish, kalkalash, semantik adaptatsiya, ichki lingvistik resurslardan foydalanish

ham muhim kommunikatsion vosita bo'lib xizmat qiladi. Terminologiya orqali til yangi bilimlar, tushunchalar va konseptlarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan terminologik qatlam tilning ilmiy salohiyatini oshiradi, uni universal bilim tashuvchi vositaga aylantiradi.

Shuningdek, terminlar fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining rivoji bilan birga shakllanadi va yangilanib boradi. Shu sababli, zamonaviy til tizimidagi terminologiya dinamik harakatga ega bo'lib, u doimiy yangilanish va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashish xususiyatiga ega. Tilshunoslikda terminologiyaning funksional rolini belgilab beruvchi asosiy funksiyalar quyidagi jadvalda ajratib ko'rsatiladi:

va metaforizatsiya kabi usullar orqali til rivojlanishi davomida terminologik boylik vujudga kelgan. Bunda ko'p tillilik, tarjima an'analari va din-falsafa bilan bog'liq semantik tizimlar muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, terminologik qatlamlar tilning ilmiy va kasbiy sohalariga moslashuvchanligini ta'minlagan.

Terminologiyaning til tizimidagi o'rni bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan: u ta'lim, tarjima, fan, axborot uzatish va jamiyatni ilmiy ong bilan boyitish kabi jarayonlarda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, til rivojlanishi tarixida terminologiyaning o'rni — bu nafaqat lingvistik, balki falsafiy va sivilizatsion hodisadir. Uni o'rganish orqali biz til va tafakkur o'rtasidagi murakkab, ammo zarur bo'lgan uzviylikni anglaymiz. Bu esa zamonaviy lingvistik tadqiqotlar, fanlararo muloqot va til siyosatini shakllantirishda asosiy metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Forobiy A.N. "Fozil shahar aholisining fikrlari". - Toshkent: Fan, 1995.
2. Kolesov V.V. Динамика русского слова. СПб, 1994 (Библиография за 1988—1994 гг.)
3. L'Homme, M.-C. (2020). Lexical Semantics for Terminology: An Introduction. Amsterdam: John Benjamins.
4. Sager, J.C. (1990). A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins.
5. Felber, H. (1984). Terminology Manual. Paris: UNESCO.
6. Kuchimov, Sh.N. Хуқукий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил) Дисс... ф. ф. д. автореф, 2004